



**Abduramanov Xamid Xudaybergenovich,**  
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti  
direktori o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

## **SURXONDARYO VILOYATIDA YUQORI TUG'ILISH KO'RSATKICHLARINING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOIIY SOHAGA TA'SIRI**

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.457>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida kuzatilayotgan yuqori tug'ilish ko'rsatkichlarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional sabablari kompleks tahlil qilingan. Shuningdek, yuqori tug'ilishning sog'likni saqlash va ta'lim tizimiga yuklayotgan institutsional bosimi baholangan hamda o'rta va uzoq muddatli demografik prognozlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot xulosalari hududiy ijtimoiy infratuzilmani rejalashtirish, reproduktiv salomatlik siyosati va xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan qarorlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Tayanch so'zlar:** tug'ilish darajasi, fertillik, demografik inersiya, erta nikoh, ko'p bolalilik qadriyati, xotin-qizlar bandligi, oliy ta'lim bilan qamrov, kontrasepsiya, ijtimoiy infratuzilma, demografik prognoz.

**Аннотация.** В данной статье проведён комплексный анализ демографических, социально-экономических и институциональных причин высоких показателей рождаемости, наблюдаемых в Сурхандарьинской области. Также оценено институциональное давление высокой рождаемости на системы здравоохранения и образования, а также разработаны средне- и долгосрочные демографические прогнозы. Выводы исследования имеют практическое значение для принятия решений в сфере территориального планирования социальной инфраструктуры, формирования политики репродуктивного здоровья и повышения социально-экономической активности женщин.

**Ключевые слова:** уровень рождаемости, фертильность, демографическая инерция, ранний брак, ценность многодетности, занятость женщин, охват высшим образованием, контрацепция, социальная инфраструктура, демографический прогноз.

**Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of the demographic, socio-economic, and institutional factors underlying the high fertility rates observed in Surkhondaryo region. In addition, the institutional pressure exerted by high fertility on the healthcare and education systems is assessed, and medium- and long-term demographic forecasts are developed. The findings of the study are of practical significance for decision-making in the fields of territorial social infrastructure planning, reproductive health policy development, and the enhancement of women's socio-economic participation.

**Keywords:** fertility rate, fertility behavior, demographic inertia, early marriage, value of large families, women's employment, higher education enrollment, contraception, social infrastructure, demographic forecast.

**Kirish.** Biz bugun 38 milliondan ziyod katta xalqimiz. Mashaqqatli va sharafli mehnatimiz bilan dunyoda hurmat topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil borayotgan, matonatli va g'ururi baland millatimiz. Biz o'zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz. Har yili aholimiz o'rtacha 2 foizga o'smoqda, 1 milliondan ziyod o'g'il-qizlarimiz katta hayotga kirib kelmoqda<sup>1</sup>.

So'nggi yillarda O'zbekistonda demografik jarayonlar hududlar kesimida turli dinamika bilan kechmoqda. Ayrim hududlarda tug'ilish darajasining barqaror pasayishi kuzatilsa, Surxondaryo viloyatida yuqori tug'ilish ko'rsatkichlari uzoq yillar davomida saqlanib qolmoqda. Mazkur holat aholi sonining tez o'sishi, ijtimoiy infratuzilmaga tushayotgan yuklama va hududiy rivojlanish siyosati nuqtayi nazaridan chuqur ilmiy tahlilni taqozo etadi.

**Maqsad va uni asoslash.** Surxondaryo viloyatida tug'ilish darajasining yuqoriligi ko'p omilli xususiyatga ega bo'lib, u demografik inersiya, an'anaviy ko'p bolalilik qadriyatlarini, qishloq aholisi ulushining yuqoriligi, xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirok darajasi hamda ta'lim bilan qamrovi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda. Shu bilan birga, reproduktiv salomatlik xizmatlari, oilaviy rejalashtirish amaliyoti va institutsional muhitning holati ham tug'ilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda<sup>2</sup>.

Yuqori tug'ilish ko'rsatkichlari bir tomondan aholining yosh tarkibini yangilash va mehnat salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratsa, ikkinchi tomondan sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlariga institutsional bosimni kuchaytiradi. Ayniqsa tibbiy xizmatlar sig'imi, maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarida o'quvchi o'rinlariga bo'lgan ehtiyojning ortishi hududiy infratuzilmani rejalashtirishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Mazkur sharoitda tug'ilishning sabablari va oqibatlarini alohida emas, balki kompleks ijtimoiy-demografik tizim sifatida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.

<sup>2</sup> Abduramanov X. Demografik jarayonlarni tartibga solishning ilmiy va uslubiy asoslari: monografiya. 2024.

<sup>3</sup> Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.


### Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

2025-yilning yanvar–sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida 61,1 mingta tug'ilish qayd etilgan bo'lib, respublikada jami tug'ilganlarning 9,2 foizi viloyat ulushini tashkil qiladi. Tug'ilishning mutlaq soni 1991-yilda 57,8 mingtadan, 2005-yilda 41,8 mingtagacha tushib, 2023-yilda eng yuqori tug'ilish (87,7 mingta) qayd etildi. 2024-yilda viloyatda 84,1 mingta tug'ilish kuzatildi (1-rasm).

Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan tug'ilishlar soni 28,9 nafarni tashkil etib, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (24,9 nafar) 4 nafarga ko'p va tug'ilish darajasi yuqoriligi bo'yicha respublika hududlari orasida 2010-yildan hozirgacha 1-o'rinni saqlab turibdi.

Mustaqillik yillaridan 1998-yilgacha tug'ilish darajasining yuqoriligi hozirgi holatda bo'lgan, ammo 1999-yilda 2-o'rin, 2004-yilda 5-o'rin va 2007-yilda 7-o'ringacha tushgan<sup>4</sup>.

Viloyat xalqaro mezonlar<sup>5</sup>ga ko'ra, 2014-yildan boshlab tug'ilish darajasi "o'rtachadan yuqori"ga to'g'ri kelib (2023-yilda "yuqori" daraja), viloyatning ijtimoiy sohalariga salbiy ta'siri mavjudligini ko'rsatadi va respublika tug'ilish darajasining oshishiga ta'sirini o'tkazmoqda.



**1-rasm. Surxondaryo viloyatida tug'ilganlar mutlaq soni va tug'ilish koeffitsiyenti dinamikasi**

Respublikaning jami 208 ta tuman va shaharlari bo'yicha har 1000 kishiga to'g'ri keladigan tug'ilishlar soni yuqori bo'lgan top 20 talik tumanlarning 9 tasi viloyat (Termiz – 32,2 nafar, Bandixon – 31,7 nafar, Sho'rchi – 30,2 nafar, Oltinsoy – 30,1 nafar, Qiziriq – 30,0 nafar, Denov – 30,0 nafar, Uzun – 29,8 nafar, Qumqo'rg'on – 29,4 nafar, Jarqo'rg'on – 29,3 nafar)ga tegishli.

Xalqaro mezon asosida viloyatning tuman va shaharlari har 1000 kishiga to'g'ri keladigan

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>, <https://gender.stat.uz/uz/>

<sup>5</sup> Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti qiymati 16,0%gacha bo'lsa – tug'ilish darajasi "past", 16,0 – 24,9%o – "o'rtacha", 25,0 – 29,9%o – "o'rtachadan yuqori", 30,0 – 39,9 – "yuqori", 40,0%o va undan yuqori – "juda yuqori" hisoblanadi.

tug‘ilishlar soni bo‘yicha guruhlarga ajratilganda, 2020-yilda tug‘ilishning “yuqori” darajasi 2 ta tuman (shahar)da (Termiz shahri va Bandixon tumani) bo‘lsa, 2024-yilda 5 ta tuman (Oltinsoy, Denov, Qiziriq, Termiz, Sho‘rchi)da kuzatilib, tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan tumanlar soni ortayotganini ko‘rsatdi (1-jadval)<sup>6</sup>.

1-jadval


**Tuman va shaharlarida tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti bo‘yicha guruhlarga ajratilishi**

Tug‘ilish darajasi, %	2020-yil	2024-yil	2025-yil yanvar–sentabr
past (16,0 gacha)	-	-	-
O‘rtacha (16,0–24,9)	Termiz tumani	-	Termiz shahri
O‘rtachadan yuqori (25,0–29,9)	Oltinsoy, Angor, Boysun, Muzrabod, Denov, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Qiziriq, Sariosiyo, Uzun, Sherobod va Sho‘rchi tumanlari	Boysun, Bandixon, Muzrabod, Sariosiyo, Angor, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Uzun, Sherobod tumanlari va Termiz shahri	Oltinsoy, Denov, Angor, Boysun, Muzrabod, Qiziriq, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo, Uzun, Sherobod, Sho‘rchi tumanlari va Termiz shahri
Yuqori (30,0–39,9)	Termiz shahri va Bandixon tumani	Oltinsoy, Denov, Qiziriq, Termiz va Sho‘rchi tumanlari	Termiz va Bandixon tumanlari

Reproduktiv yoshdagi har bir ayolga to‘g‘ri keladigan bolalar soni ortib bormoqda. Agar reproduktiv yoshdagi har bir ayolga 2020-yilda 3,15 nafar, 2022-yilda 3,54 nafar, 2023-yilda 3,85 nafar bola to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 3,72 nafarga yetdi. Ushbu ko‘rsatkich qishloqda 3,88 nafar, shaharda 3,44 nafarni tashkil qilmoqda.


<sup>6</sup> Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Demografiya: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014.

Termiz (4,33 nafar), Denov (4,13 nafar), Sho‘rchi (4,04 nafar) va Qiziriq (4,01 nafar) tumanlarida tug‘ilish darajasi “yuqori”, qolgan barcha tuman va shaharlarda “o‘rtachadan yuqori” baholanadi. Tuman va shaharlar kesimida tug‘ilish shunchalik yuqori darajadagi, tahlilda birorta hududda “o‘rtacha” tug‘ilish darajasi kuzatilmadi<sup>7</sup>.



2-rasm. Reprodukativ yoshdagi har bir ayolga to‘g‘ri keladigan bolalar soni

So‘nggi yillarda tug‘ilganlar sonida yosh va yoshi katta onalar ulushi ortib bormoqda. 2020–2024-yillarda 15–19 yoshdagi onalardan tug‘ilganlarning ulushi 3,6 foizdan 5,4 foizga, 35–39 yoshdagilardan 6,7 foizdan 8,5 foizga, 40 va katta yoshdagilardan 0,9 foizdan 1,3 foizga oshgan, aksincha, tug‘ilish holatlarining asosiy qismi to‘g‘ri keladigan 20–34 yosh oralig‘idagi onalarning ulushi 88,8 foizdan 83,8 foizgacha tushgan (3-rasm).



3-rasm. 20–34 yoshdagi onalardan tug‘ilganlarning ulushi, %da

Erta tug‘uruqlar (17 va undan kichik yoshda ona bo‘lganlar) soni yuqori. Viloyatda 2024-yilda 162 ta erta tug‘uruq holatlari qayd etilib, respublika ko‘rsatkichining 9,7 %ini tashkil qiladi.

Erta tug‘uruq holatlari ayniqsa, 14-16 yoshli qizlar orasida ko‘payib borayotgani tashvishli holdir. Jumladan, 2024-yili 14 yoshda – 3 ta, 15 yoshda – 11 ta, 16 yoshda – 30 ta, 17 yoshda – 118 ta tug‘uruq holati qayd etilgan.


Hatto 17 yoshda 14 nafar ayol ikkinchi marta farzandli bo‘lgan. Bular Denov (5 ta), Sherobod (4 ta), Jarqo‘rg‘on (2 ta), Sariosiyo (1 ta), Uzun (1 ta) tumanlari va Termiz shahrida (1 ta) kuzatilgan.

Tug‘ilganlar sonida oilada farzandlar ketma-ketligi bo‘yicha uchinchi va undan keyingi farzandlar

<sup>7</sup> Sh. Dusnayev, O‘zbekiston Respublikasida demografik rivojlanishni iqtisodiy statistik baholash. Monografiya, 2024.

ulushi ortmoqda. Tug‘ilganlarning oilada farzandlar ketma-ketligi kesimida 2021-yilda 25,8 ming nafar to‘ng‘ich farzand tug‘ilgan bo‘lsa, ularning soni 2022-yilda 24,6 ming nafarga va 2024-yilga kelib, 28,2 ming (-8,3 foizga) nafargacha tushgan. Ikkinchi farzandlar mos ravishda – 6,4 foizgacha kamaygan.

Tug‘ilishdagi asosiy o‘shish uchinchi va undan keyingi farzandlar ulushiga to‘g‘ri kelib, ularning soni 2021-yilda 31,1 ming nafardan 2024-yilda 37,0 ming nafargacha (18,9 foizgacha) oshgan. Viloyatda tug‘ilishning yuqoriligini uchinchi va undan keyingi farzandlar ta‘minlamoqda (4-rasm).



**4-rasm. Farzandlar ketma-ketligining jami tug‘ilishdagi ulushi, %da**

2019–2024-yillarda viloyatda maktab bitiruvchilari sonining 26,7 ming nafardan 33,9 ming nafargacha oshishi reproduktiv yoshga kirib kelayotgan avlod hajmining kattalashib, tug‘ilish potentsiali saqlanayotganini ko‘rsatadi. Biroq shu davrda nikohlar sonining 27,7 mingtadan 23,3 mingtaga pasayishi nikohni kechiktirish kabi ijtimoiy omillar ta‘sirida tug‘ilish sur‘atlari cheklanish ehtimolini yuzaga keltiradi. Lekin qishloq hududlarda bitiruvchilar (56–58,0 %) va nikohlar (65–65,8 %) ulushining yuqoriligi kelgusidagi tug‘ilish o‘shishining, asosan, qishloq mintaqalari hisobiga ta‘minlanishini anglatmoqda.

Tug‘ilish ko‘pligining asosiy sabablari:

1. *An’anaviy ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarining ustunligi (ko‘p bolalik qadriyati).* Tadqiqot natijalari Surxondaryoda aholi orasida ko‘p bolalilik oilaviy qadriyat sifatida yanada mustahkam ekanini ko‘rsatdi. Respondentlarning 54-70 foizi ko‘p bolalilikni oilaviy qadriyat sifatida baholagan bo‘lib, bu qarash ayniqsa qishloq aholisi (61,3%) va o‘rta ma’lumotli qatlam (91,7%)da kuchli namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, salbiy oqibatlar haqida tushuncha juda past (3–10%).

2. *Xotin-qizlar bandligining pastligi.* 2024-yilda viloyatda xotin-qizlarning bandlik darajasi mehnatga layoqatli yoshdagi ayollar soniga nisbatan 55,7 foizni tashkil qilib, respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan (61,1 %) past, respublika hududlari

orasida eng oxirgi o‘rinda turadi. Ushbu ko‘rsatkich 2005-yilda yuqori bo‘lgan (63,4 %), 2019-yilda pasaygan (48,5 %), 2020-yilda eng past ko‘rsatkich (50,7 %) kuzatilgan.

Mazkur yilda mehnat yoshiga kirib keluvchilar (51,3 ming) bilan nafaqaga chiquvchilar (21,6 ming) soni o‘rtasidagi farq 30,0 ming nafarni tashkil qiladi. Prognozlariga ko‘ra, 2030-yilga kelib, bu farq 36,2 ming nafarga oshishi kutilyapti, bu esa viloyatda tug‘ilish darajasining yuqoriligi mehnat bozoriga yangi ishchi kuchi oqimining ortib borishi, shu bilan birga yangi ish o‘rinlari yaratish zaruratini orttiradi.

Tadqiqotda mehnat faoliyatining tuzilishi tug‘ilish darajasiga bevosita ta‘sir qilayotganini ko‘rsatdi. Rasmiy sektorda ishlovchilar orasida 2 farzandlilar ulushi o‘rtacha 66,7 foiz, 4 va undan ko‘p farzandlilar esa 20,0 foizdan oshmaydi. Aksincha, norasmiy sektorda 3 farzandlilar 40,0 foiz, 4 va undan ko‘p farzandlilar 30,0 foiz, qishloq xo‘jaligi sohasida shug‘ullanuvchilarda esa 4 va undan ko‘p farzandlilar 40,0 foizni tashkil qiladi. Mehnat bozoridagi norasmiylik va qishloq xo‘jaligiga tayanilgan ish o‘rinlari tug‘ilish darajasining yuqoriligini ko‘rsatdi.

3. *Oliy ma’lumotli ayollar ulushi va qizlarning oliy ta’lim bilan qamrovining pastligi.* Xotin-qizlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi past bo‘lib, 2023/2024-o‘quv yilida 18–23 yoshli ayollarga nisbatan 29,3 foiz ulushga ega. Bu respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan (43,9 %) past. Ushbu holat o‘tgan yillarda ham past bo‘lgan (2016/2017-o‘quv yilida 2,1%, 2019/2020-o‘quv yilida 6,0 %, 2022/2023-o‘quv yilida 18,1%).

Oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan ayollarning ulushi 2003-yilda 34,5 foiz, 2019-yilda 55,2 foiz, 2021-yilga kelib, 49,1 foiz, 2024-yilda esa 56,6 foiz bo‘lgan.

Tadqiqot natijalari oliy ma’lumotli ayollar ulushining reproduktiv xulq-atvoriga kuchli ta‘sir ko‘rsatishini yaqqol namoyon etdi. Aholining ta’lim darajasining ortishi kelajakda tug‘ilish darajasining barqarorlashishiga olib keladigan omil sifatida qarashga imkon berdi. Tadqiqot natijalari oliy ma’lumotli respondentlarning 26,1 foizi birinchi farzandini 19-23 yoshda tug‘gan bo‘lsa, mazkur yoshda o‘rta maxsus va o‘rta ma’lumotli qatlamdagilar 73,9 foiz ulushga ega bo‘lib, erta reproduktiv sikl hali ham barqaror ekanini anglatadi.

4. *Qishloq aholisi ulushining yuqoriligi.* 2025-yil boshida qishloq aholisining ulushi 63,9 foizni tashkil qilib, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (49,0 %) yuqori. Qishloq joylarda har 1000 kishiga to'g'ri keladigan tug'ilishlar soni 30,1 nafarni tashkil qilib, respublikaning qishloq joylari o'rtacha ko'rsatkichidan (25,9 nafar) 4,2 nafarga yuqori, shahar joylarida 26,7 nafarni tashkil etgan.

Qishloq aholisi ulushi Bandixon (82,1 %), Sariosiyo (80,9 %), Jarqo'rg'on (80,0 %), Uzun (76,8 %), Qiziriq (73,4 %), Sherobod (70,2 %), Termiz (68,8 %), Qumqo'rg'on (67,6 %), Sho'rchi (65,5 %), Denov (64,8 %) va Muzrabot (63,4 %) tumanlarida yuqori.

Tadqiqot natijalari shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi fertillik xulq-atvorining keskin farqlari aniq va barqaror ekanini ko'rsatdi. Qishloq joylarda 3 va 4 nafardan ortiq bolali oilalar ulushi 67,7 foizni tashkil etgan bo'lib, shahar joylarda 2 bolali oila mezoni ustun – 25,0 foiz. Shu bilan birga, qishloq aholisi ulushi yuqoriligi faqat fertillik darajasida emas, balki tug'ilishni belgilaydigan omillarda ham aks etdi. Masalan, qishloqda 46,0 foiz respondent iqtisodiy qiyinchiliklar tug'ilishga "umuman ta'sir qilmasligi"ni bildirgan.

5. *Kontrasepsiya vositalaridan foydalanish darajasining pastligi.* 2024-yilda kontrasepsiya (bachadon ichi spirali) vositasidan foydalangan ayollar soni 208,3 ming nafarni tashkil etib, 15–49 yoshdagi ayollarga nisbatan 28,2 foiz ulushga ega. Respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (41,3%) past bo'lib, respublikaning 14 ta hududi orasida kontratsepsiyadan foydalanganlar ulushi pastligi bo'yicha Buxoro (24,4%) viloyatidan keyin 2-o'rinda turadi. O'tgan yillarda ham (2011-yil 22,6%, 2015-yil 31,3%, 2020-yil 32,0%) kontratsepsiya vositasidan foydalanish bo'yicha past ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Tadqiqot natijalarida aholining kontraseptiv vositalardan foydalanish darajasining juda pastligi namoyon bo'ldi. Respondentlarning 23,3 foizi foydalanishini aytgan bo'lsa, 48,3 foizi umuman foydalanmasligini bildirgan, yana 28,3 foizi esa bu haqda yetarli ma'lumotga ega emas. Qishloq aholisining 6,5 foizi, shaharning esa 42,9 foizi undan foydalanadi. Ayollarda kontratsepsiyadan foydalanish 34,3 foiz, erkaklarda esa 8,3 foiz bo'lib, mas'uliyat asosan ayollar zimmasiga tushayotganini ko'rsatadi.

6. *Migratsiyaning ta'siri.* 20–40 yoshdagi aholining qish mavsumida xorijdan qaytishi bilan bog'liq mavsumiy migratsiya jarayonlari tug'ilishlar soniga muayyan ta'sir ko'rsatgan. 2024-yilda viloyatda tug'ilish ko'rsatkichlari yanvar–iyun oylarida nisbatan barqaror bo'lib, 6,3–6,4 ming atrofida shakllangan. Biroq iyul (8,1 ming), avgust (8,2 ming), sentyabr (9,4 ming) va oktabr (8,2 ming) oylarida tug'ilishlar soni sezilarli darajada oshgani kuzatilgan.

7. *Demografik inersiya.* Viloyatda 2024-yilda tug'ish yoshidagi 15–49 yoshli ayollar ulushi 25,1 foizni tashkil qilgan. Mazkur avlod vakillari tug'ilgan davrlarda ham viloyat yuqori tug'ilish darajasi bilan ajralib turgan. Xususan, 1980-yilda 40,5%, 1985-yilda 46,4% va 1991-yilda 42,5%ni tashkil qilib, bu ko'rsatkichlar Qashqadaryoning ushbu yillarda respublika miqyosida eng yuqori tug'ilish darajasiga ega hududlardan biri bo'lganini tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, hozirgi kunda tug'ish yoshidagi ayollar ulushining yuqoriligi va ular mansub bo'lgan demografik "ko'payishda faol" avlod xususiyatlari viloyatda yuqori tabiiy o'sish dinamikasining saqlanib qolishida muhim omil sifatida baholanadi.

8. *Ayollarning reproduktiv qarorlarga ta'sirining pastligi.* Tadqiqot natijalari yosh kelinlarning reproduktiv qarorlarda mustaqilligi ancha cheklanganini ko'rsatdi. Qarorlarning 13,4 foiz qaynona-qaynota tomonidan qabul qilingan bo'lib, qishloqda bu bosim yanada kuchli – respondentlarning atigi 12,9 foizi mustaqil qaror qabul qila olgan. Farzandlar soni ko'paygan sari ayolning qaror qabul qilishdagi ishtiroki yanada kamaygan (90,0 % holda qaror erkaklar tomonidan qabul qilinadi).

9. *Erta nikohlarning ko'pligi.* Erta nikoh (18 yoshdan oldin) holatlarida ayolning reproduktiv davri uzoqroq va tug'ish imkoniyati yuqori bo'ladi. Erta nikoh erda tug'uruq holatlarini keltirib chiqaradi. Viloyatda 2024-yilda 162 ta erda tug'uruq holati qayd etilgan bo'lib, bu respublika ko'rsatkichining 9,7 foizini tashkil qiladi. Erta tug'uruqlar soniga nisbatan ulushi Denov (jami erda tug'uruq holatlarining 27,8%), Sherobod (15,4%), Jarqo'rg'on (13,0%), Sariosiyo (9,9%) va Uzun (4,9%) tumanlarida yuqori hisoblanadi.

*Ekonometrik tahlil natijalari.*


Ayollarning oliy ta'lim bilan qamrovi ortishi, mehnat bozorida ishtirokining kengayishi va ularda kontraseptiv vositalardan foydalanganlar sonining ko'payishi tug'ilishning kamayishiga ta'sir etuvchi asosiy omil ekani tasdiqlandi. Jumladan:

- oliy ta'lim bilan qamrab olingan ayollar sonining 1,0 foizga ortishi tug'ilishning 0,21 foizga;
- ish bilan band ayollar sonining 1,0 foizga ortishi tug'ilishning 0,29 foizga;
- bachadon ichi spiralidan foydalangan ayollar ulushi 1,0 foizga ortishi tug'ilishning 0,22 promillega kamayishiga olib keladi<sup>8</sup>.

*Demografik prognoz.*

Prognozlarga ko'ra, tug'ilganlar soni 2026-yilda 82,9 ming nafarni va 2030 yilda 85,1 ming nafarni tashkil qilib, mazkur yillar oralig'ida o'sish sur'ati (o'rtacha 100,4%) bir maromda davom etishi kutiladi (5-rasm).

Tug'ilish darajasi 2026-yilda 26,8 %oni tashkil qilgan bo'lsa, 2030-yilda 25,2 %o bo'lishi kutilmoqda. Viloyatning tug'ilish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari shu holatda ham respublika ko'rsatkichi (mos ravishda 24,4 %o, 19,0 %o)dan yuqori hisoblanib, mamlakatda yuqori tug'ilish ko'rsatkichiga ega ekani saqlanib qoladi.





**5-rasm. Tug'ilganlar soni koeffitsiyentining prognoz ma'lumotlari**

Prognozlar bo'yicha viloyati aholisi soni 2030-yilga borib, 3,4 million nafarga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, 2030-yilga borib, 18 yoshgacha bo'lgan aholi soni 1 324,9 ming kishiga va mehnatga layoqat yoshidan kattalar soni esa 367,6 ming kishiga yetishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, viloyatda 0-4, 5-9, 10-14, 15-19, 35-39 yosh guruhidagi aholi ulushi yuqori bo'lishi kutilmoqda. Shuningdek, aholining yoshi va jinsini aks ettiruvchi piramidada viloyat aholisining yosh tarkibida yoshi katta aholi ulushi ko'payotgani ko'rsatilgan (6-rasm).



**6-rasm. Aholining yoshi va jinsini aks ettiruvchi piramida**

*Yuqori tug'ilishning ijtimoiy sohaga ta'siri.*

Viloyatda tug'ilish darajasining yuqoriligi, birinchi navbatda, sog'likni saqlash va ta'lim tizimiga o'z bosimini o'tkazmoqda.


2024-yilda viloyatda 96 ta shifoxona mavjud edi. Bu har 10 000 kishiga 34,0 ta shifoxona o'rni to'g'ri kelib, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (47,9 ta) past degani. Viloyat shifoxona o'rinlarining 10 ming aholiga nisbatan pastligi bo'yicha respublikada 1-o'rinda turadi.

Shuningdek, 443 ta ambulatoriya-poliklinikaga bir smenada 30 ming kishi tashrif buyurgan bo'lib, har 10 000 kishiga 102 nafarni tashkil etgan. Ushbu muassasalarda xizmat ko'rsatgan barcha toifadagi shifokorlar soni 4774 nafarni tashkil qilgan. Bu har 10 000 kishiga 16 nafar shifokor yoki bitta shifokorga 617 kishi to'g'ri kelishini bildiradi<sup>9</sup>. Mazkur ko'rsatkich respublika ko'rsatkichidan (29 nafar) ancha past.

<sup>9</sup> Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti // <https://www.surxonstat.uz/uz/>

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi.

Prognozlar asosidagi hisob-kitoblarga asosan aholi sog'ligini hozirgi darajada ushlab turish va yaxshilash uchun 2030-yilgacha ambulatoriya-poliklinikalar sonini 507 taga yetkazish lozim (qo'shimcha 64 ta) bo'ladi.



7-rasm. Sog'likni saqlash muassasalari va xodimlari, 2024-yilda

Har 10 000 kishiga viloyatda 73 nafar hamshira to'g'ri kelib, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (107 nafar) past. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha viloyatning Sherobod (42 nafar), Qumqo'rg'on (50 nafar), Denov (51 nafar), Sho'rchi (56 nafar) va Oltinsoy (56 nafar) tumanlarida eng past kuzatilmoqda.

Surxondaryo viloyatida shifokorlar tayyorlaydigan OTM soni 1 ta, o'rtta tibbiyot xodimlarini tayyorlaydigan kollejlari soni 9 tani tashkil qiladi. Oliy ma'lumotli shifokorlarni tayyorlash bo'yicha respublika ko'rsatkichining atigi 4,1 foiz va o'rtta tibbiyot xodimlarini tayyorlash bo'yicha 4,2 foiz past ulushga ega bo'lsa-da, lekin tug'ilganlar soni 9,1 foiz (2,8 marta ko'p). Aholiga tibbiy xizmatlar va xodimlarning yetishmasligi natijasida tug'ilishlar rejalashtirilmayotganini ko'rsatadi.

2025-yil boshida 3-6 yosh oralig'idagi bolalar soni 284,5 ming nafarni tashkil qilgan. Prognozlarga ko'ra, 2030-yilga kelib, ularning soni 335,4 ming nafarga yetishi kutilmoqda.

3-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2024-yilda 64,1%ni tashkil qilib, respublika ko'rsatkichidan (72,4%) past bo'lgan.

3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlarni saqlab qolish hamda kelgusida jadal rivojlanayotgan davlatlardagi kabi 80 foiz atrofida qamrov darajasiga erishish uchun 2030-yilgacha bosqichma-bosqich 86,0 ming nafar bola uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'shimcha o'rin va 2 866 ta yangi

ish o'rni yaratish zarurati yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, malakali mutaxassis tarbiyachilarni tayyorlashni talab qiladi.

2024/2025-o'quv yilida viloyatda umumta'lim maktablarini jami 33,8 ming o'quvchi bitirgan bo'lsa, 2025/2026-o'quv yilida 61,2 ming bola 1-sinfga chiqadi. Ushbu bolalarni maktabga qabul qilish uchun 2025/2026-o'quv yilining o'zida qo'shimcha 27,3 ming o'quvchi o'rni zarur bo'ladi.

Viloyatda 2024/2025-o'quv yilida maktablar pasporti bo'yicha umumiy loyihaviy quvvati 427,4 ming o'rinni tashkil etdi. Hisob kitoblariga ko'ra, 2026-yilda 7-17 yosh oralig'idagi bolalar soni 639,9 ming nafarga, 2030-yilda 741,1 nafarga yetishi kutilmoqda.

2029/2030-o'quv yiliga qadar bitiruvchilar hamda 1-sinfga qabul qilinadiganlar o'rtasidagi tafovut o'rtacha 21,8 ming o'quvchini tashkil qiladi. Yiliga o'rta hisobda qo'shimcha 21,8 ming o'quvchi uchun kamida 606 nafar yangi o'qituvchi jalb qilish zarur bo'ladi.

2024/2025-o'quv yilida viloyatda jami o'quvchilar soni 559,9 ming nafar, o'qituvchilar soni 52,1 ming nafar, ya'ni bitta o'qituvchiga 10,7 nafar, respublika bo'yicha esa 11,6 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.

**Yakuniy qism.** Aholi sonining nisbatan yuqori sur'atlarda oshib borishi viloyat iqtisodiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'z navbatida, kutilayotgan yuqori demografik salohiyatning ta'sirini bilgan holda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Ayollarni mehnat bozoriga jalb qilish, masofaviy ish imkoniyatlarini yaratish, oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish va bola parvarishi bilan ishni uyg'unlashtirishga qaratilgan sharoitlarni kengaytirish.

2. Ta'lim sifati, raqamli savodxonlik va o'qituvchilar malakasini oshirishni tizimli yo'lga qo'yish. Qisqa kurslar, modulli ta'lim va gibrid o'qitish usullarini keng joriy etish.

3. Byudjet resurslarini samarali yo'naltirish hamda hududiy ijtimoiy infratuzilmani rejalashtirish jarayonida xalq deputatlari viloyat Kengashi a'zolarining demografik o'sish bo'yicha prognoz ma'lumotlaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

4. Mavjud ambulatoriya-poliklinikalar faoliyati samaradorligini saqlab qolish hamda aholining tez sur'atlarda o'sishini hisobga olib, 2030-yilgacha

ularning sonini kamida 507 taga yetkazish maqsadga muvofiq.

5. Kontraseptiv vositalarni yetkazib berish xizmatida davlat-xususiy sheriklikni keng joriy etish orqali xizmat turlari qamrovini oshirish maqsadga muvofiq.

6. Tugʻilish darajasi yuqori boʻlgan Termiz, Bandixon, Shoʻrchi, Oltinsoy, Qiziriq, Denov, Uzun, Qumqoʻrgʻon va Jarqoʻrgʻon tumanlarida aholining reproduktiv madaniyatini oshirish hamda ongli oilaviy rejalashtirishni ragʻbatlantirish maqsadida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

7. Aholining istiqomat qilish hududlarini oqilona va ilmiy asosda loyihalash hamda yangi turar-joy massivlarini barpo etishda taʼlim, sogʻlikni saqlash, transport, kommunal xizmatlar, shuningdek,

dam olish maskanlari kabi ijtimoiy infratuzilmalarni bir vaqtning oʻzida va uzviy tarzda rivojlantirish zarur.

8. 2030-yilgacha 3–6 yoshli bolalarni maktabgacha taʼlim bilan qamrab olish darajasini 80 foizga yetkazish maqsadida 86 ming bola uchun qoʻshimcha oʻrinlar yaratish, shuningdek, taxminan 2,9 mingta yangi ish oʻrni tashkil etish va ularni malakali tarbiyachilar bilan taʼminlash zarur.

9. Kelgusi davrda 1-sinfqa qabul qilinadiganlar va bitiruvchilar soni oʻrtasida oʻrtacha 24,7 ming nafar yillik tafovut yuzaga kelishi sababli, 2030-yilga qadar har yili oʻrtacha kamida 687 ta yangi ish oʻrni yaratish va oʻqituvchi murabbiylarni tayyorlash talab etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasining rasmiy veb-sayti // <https://stat.uz/>, <https://gender.stat.uz/uz/>
3. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti // <https://www.surxonstat.uz/uz/>
4. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Demografiya: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014.
5. Abduramanov X. Demografik jarayonlarni tartibga solishning ilmiy va uslubiy asoslari: monografiya, 2024.
6. Tojiyeva Z.N. Oʻzbekiston aholisi: oʻsishi va joylanishi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
7. DusnayeV Sh. Oʻzbekiston Respublikasida demografik rivojlanishni iqtisodiy statistik baholash: monografiya, 2024.